MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGINI EKONOMETRIK VA STATISTIK USULLAR ASOSIDA BAHOLASH

Rahmonova Yulduz Farhodovna
Urganch Ranch universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishi 1-kurs magistratura talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.20748043

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqa raqobatbardoshligini miqdoriy baholashning zamonaviy ekonometrik va statistik usullari tahlil qilingan. Bu borada tadqiqotda Hausman testi asosida qattiq samaralar modeli tanlangan va Moran I statistikasi yordamida fazoviy avtokorrelyatsiyasi aniqlangan. Shuningdek, Xorazm viloyati misolida investitsiya muhiti va innovatsion faollikning mintaqa raqobatbardoshligiga hal qiluvchi ta'siri yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные эконометрические и статистические методы количественной оценки региональной конкурентоспособности. В этом контексте в исследовании выбрана модель жестких эффектов на основе теста Хаусмана и выявлена пространственная автокорреляция с использованием статистики Морана I. Также даны выводы и рекомендации относительно решающего влияния инвестиционной среды и инновационной активности на региональную конкурентоспособность на примере Хорезмской области.*

Abstract. *This article analyzes modern econometric and statistical methods for quantitative assessment of regional competitiveness. In this regard, the study selected a rigid effects model based on the Hausman test and identified spatial autocorrelation using Moran I statistics. Also, conclusions and recommendations are given on the decisive impact of the investment environment and innovative activity on regional competitiveness on the example of the Khorezm region.*

Kalit so'zlar. *Mintaqa raqobatbardoshligi, panel ma'lumotlari, klaster tahlili, DEA, fazoviy ekonometrika, kompozit indeks, Hausman testi, Moran I statistikasi.*

Ключевые слова. *Региональная конкурентоспособность, панельные данные, кластерный анализ, DEA, пространственная эконометрика, составной индекс, тест Хаусмана, статистика Морана I.*

Key words. *Regional competitiveness, panel data, cluster analysis, DEA, spatial econometrics, composite index, Hausman test, Moran I statistics.*

Kirish. Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar o'rtasidagi raqobat kuchayib bormoqda. Bu holatda mintaqa raqobatbardoshligi zamonaviy iqtisodiy tahlilning asosiy yo'nalishi sifatida hududning mahsulot va xizmatlar bozorida tutgan o'rnini, ishlab chiqarish samaradorligini hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini kompleks ifodalaydi. Bu esa milliy iqtisodiyot va alohida mintaqalar, shaharlar va hududiy klasterlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shularga asosan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida mintaqaviy rivojlanish masalasiga aylangan. Ushbu masalaning yechimi esa Xorazm viloyatida kuzatilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, sanoat sohasini tartibga solish islohotlari hamda investitsiyalarni jalb qilish borasidagi chora-tadbirlar mintaqa raqobatbardoshligini ilmiy asosda baholashni taqozo etadi. Shu

bois, mintaqaviy raqobatbardoshlikni zamonaviy ekonometrik va statistik usullar yordamida baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqa raqobatbardoshligi kontseptsiyasi XX asrning oxirida iqtisodiy nazariyaning mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllandi. Ushbu tushunchaning asosiy nazariy asosini Porterning (1990-y.) “millatlar raqobat ustunligi” asari tashkil etadi [1]. Uning modelida raqobatbardoshlik omil shartlari - ishchi kuchi, kapital, infratuzilma va tabiiy resurslar; talab shartlari - ichki bozordagi talabning sifati va xususiyatlari; bog‘liq va yordamchi tarmoqlar - raqobatbardosh ta’minotchi va sherik tarmoqlar va firma strategiyasi, tuzilmasi va raqobat - mahalliy raqobat muhiti kabi asosiy omillar orqali tushuntiriladi.

Krugman (1991-y.) esa yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi aglomeratsiya samaralari va fazoviylik kontsentratsiyasiga alohida e’tibor qaratadi [2]. Ushbu nazariya bo‘yicha hududiy klasterlar shakllanishi o‘ziga tortuvchi kuchlar (masshtab iqtisodiyoti va mahalliy bozor effektlari) va tarqatuvchi kuchlar (yer narxi va tirbandlik) o‘rtasidagi mutozana natijasida yuzaga keladi.

Storper (1997-y.) “mintaqaviy jahon” kontseptsiyasida bilim va texnologiyalarning mintaqaviy to‘planishi, norasmiy aloqalar va ishonch muhitining raqobatbardoshlikdagi rolini alohida ta’kidlaydi [3]. Ushbu nazariy asos keyinchalik WEF (Jahon iqtisodiy forumi) va IMD (Boshqaruvni rivojlantirish instituti) global raqobatbardoshlik indekslari orqali takomillashib borgan.

Annoni va Kozovskalar (2010-y.) Yevropa Ittifoqining 271 ta NUTS-2 mintaqasi uchun mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksini (RCI) ishlab chiqishda PCA usulidan foydalanganlar [4]. Ularning metodologiyasi 11 ta ustun va 79 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga olgan. Ushbu tadqiqot keyingi yillarda davom ettirilib, RCI indeksi shaklida 2016- va 2019-yillarda yangilangan.

Huggins va Thompsonlar (2015-y.) Buyuk Britaniya mintaqalari uchun raqobatbardoshlik indeksini ishlab chiqishda omilli tahlil va panel regressiya usullarini keng qo‘llaganlar [5]. Ularning natijalari mintaqaviy raqobatbardoshlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi uzoq muddatli kointegrasiya aloqasini tasdiqlagan.

Gardiner, Martin va Teyler (2004-y.) esa Buyuk Britaniya NUTS-3 mintaqalari uchun panel ma’lumotlari asosida mintaqaviy o‘sish omillarini tadqiq etganlar [6]. Qat’iy ta’sirlar modeli natijalari ko‘rsatishicha, inson kapitali va infratuzilmaga investitsiyalar mintaqaviy o‘sishning asosiy determinantlari bo‘lib hisoblanadi.

Feldkircher (2006-y.) Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari mintaqalari uchun tizimli umumlashtirilgan momentlar usuli yordamida o‘sish konvergensiyasini o‘rganib, endogenlik muammosini bartaraf etgan [7]. Bu boradagi natijalar shuni ko‘rsatdiki, inson kapitalining boshlang‘ich darajasi mintaqaviy konvergensiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Anselin (1988-y.) asari esa fazoviy ekonometrikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi [8]. Keyinchalik, Le Gallo va Ertur (2003-y.) fazoviylik filtrlash usulidan foydalanib, Yevropa mintaqalari o‘rtasidagi texnologik ta’sir natijalarini o‘rganganlar.

Rey va Montouri (1999-y.) AQSh shtatlari o‘rtasidagi daromad konvergensiyasini LISA (Fazoviy bog‘liqlikning mahalliy indikatorlari) usuli yordamida tahlil qilib, mintaqaviy iqtisodiy faollikning geografik jihatdan klasterlashish tendensiyasini aniqlagan [9].

O‘zbekistonda ham mintaqaviy raqobatbardoshlik va iqtisodiy tahlil sohasida qator muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada O‘zbekiston mintaqalari uchun inson kapitalining iqtisodiy o‘sishga ta’siri panelli uzoq muddatli bog‘liqlik usuli yordamida o‘rganilgan. Unga asosan, Xoliqov (2021-y.) Xorazm viloyatida sanoat klasterlarini shakllantirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar tizimini soddalashtirib, kompozit indeks yaratish maqsadida PCA usuli qo‘llanildi. Kaiser mezoni bo‘yicha xos qiymati 1 dan katta bo‘lgan komponentlar tanlab olindi. Eng katta dispersiyaga aylantirish rotatsiyasi yordamida omillarni talqin qilish osonlashtirildi. Mintaqalar tipologiyasini aniqlash uchun esa Ward metodi yordamida dendrogramma qurilib, klasterlar soni aniqlandi. K-means algoritmida belgilangan klaster soni bilan yakuniy tipologiya shakllantirildi. Klasterlar sifatini baholash uchun Calinski-Harabasz va Silhouette koeffitsientlari ham hisoblandi. Samaradorlik tahlili usuli yordamida har bir mintaqaning nisbiy samaradorligi baholandi. CRS (o‘lchamga nisbatan doimiy qaytim) va VRS (o‘lchamga nisbatan o‘zgaruvchan qaytim) modellari ham chiqim yo‘nalishi bo‘yicha ishlatildi. Samaradorlik chegarasida joylashgan mintaqalar sifatida qabul qilinib, qolgan mintaqalar ulardan qanchalik uzoqda ekanligini o‘lchash imkoniyati berildi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich deskriptiv tahlil ko‘rsatishicha, O‘zbekiston mintaqalari o‘rtasida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu borada tadqiqotda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha deskriptiv statistika natijalari keltirilgan (N=196 kuzatuv asosida).

1-jadval

2010-2023-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlarning deskriptiv statistikasi [11]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	O‘rtacha	O‘rtacha og‘ish	Minimum	Maksimum	Og‘ish
Aholi jon boshiga YaIM	mln. so‘m	6,84	2,31	3,12	12,40	0,87
Eksport hajmi	mln. dollar	312,4	198,6	48,2	921,3	1,24
To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar	mln. dollar	87,3	64,5	5,1	312,8	1,53
Bandlik darajasi	%	64,2	5,8	51,3	74,6	-0,32
O‘rtacha ish haqi	ming so‘m	2841	876	1102	5630	0,64
Ta’lim indeksi	ball	58,4	9,2	38,7	79,3	-0,18
Ilmiy tadqiqot xarajatlari	YaIMga %	0,42	0,19	0,12	0,94	0,71
Patentlar soni	1000 nafar aholi	0,18	0,09	0,04	0,47	0,93
Internet foydalanuvchi	%	52,6	14,3	22,1	81,4	-0,22
Logistika indeksi	ball (1-5)	2,84	0,43	1,92	3,71	0,15
Energiya uzilishi	soat/yil	48,3	22,7	8,4	112,6	1,18
Raqobatbardoshlik ind.	ball (0-1)	0,512	0,142	0,241	0,847	0,09

Ushbu 1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichi bo‘yicha mintaqalar o‘rtasida katta tafovut mavjud. Xususan, Toshkent shahri (12,40 mln. so‘m) va Surxondaryo viloyati (3,12 mln. so‘m) o‘rtasidagi farq 4 barobardan ortiq. Xorazm viloyati ushbu

ko‘rsatkich bo‘yicha 5,8 mln. so‘m bilan o‘rtacha darajada joylashgan. Og‘ish qiymatlari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va ilmiy tadqiqot xarajatlari ko‘rsatkichlari uchun o‘ngga og‘ish (1,53 va 0,71) mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar turli yetakchi mintaqlarda to‘planganligini anglatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar ham tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval

2023-yilda hisoblangan O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar [11]

Hududlar	Aholi jon boshiga YaIM (mln. so‘m)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (mln. dollar)	Bandlik (%)	Ilmiy tadqiqot xarajatlari (%)	Raqobatbar-doshlik indeksi
Toshkent shahri	12,40	312,8	72,3	0,94	0,847
Toshkent viloyati	9,82	198,4	69,1	0,71	0,763
Samarqand viloyati	7,14	124,6	66,8	0,52	0,681
Farg‘ona viloyati	6,93	98,3	65,4	0,48	0,634
Andijon viloyati	6,71	87,9	64,9	0,43	0,618
Namangan viloyati	6,42	79,2	63,7	0,39	0,597
Qashqadaryo viloyati	6,18	112,7	62,1	0,36	0,572
Buxoro viloyati	6,04	94,5	61,8	0,34	0,558
Xorazm viloyati	5,80	62,3	60,4	0,31	0,531
Navoiy viloyati	5,63	58,1	59,6	0,29	0,509
Sirdaryo viloyati	4,97	41,2	57,3	0,24	0,462
Jizzax viloyati	4,62	35,8	55,8	0,21	0,428
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,31	28,4	53,9	0,17	0,387
Surxondaryo viloyati	3,12	18,6	51,3	0,12	0,241

Mazkur 2-jadvalga asosan, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi va innovatsion faollik o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud ($r = 0,72$ va $p < 0,01$). Infratuzilma sifati va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham statistik jihatdan muhim ahamiyatga ega ($r = 0,65$ va $p < 0,01$). Aholi jon boshiga YaIM va raqobatbardoshlik indeksi o‘rtasidagi korrelyatsiya eng yuqori darajada kuzatilgan ($r = 0,81$ va $p < 0,001$).

Qattiq samaralar (FE) va tasodifiy samaralar (RE) modellari o‘rtasida tanlov qilish uchun Hausman testi o‘tkazildi. Test natijasiga ko‘ra $\chi^2(4)$ 18,63 ga va p-qiymat esa 0,0009 ga teng bo‘ldi. Demak, null-gipoteza (RE modeli samarali) rad etilib, qattiq samaralar modeli qo‘llanildi.

Qat'iy samaralar modeli natijalari ko'rsatishicha, investitsiya muhiti ko'rsatkichi raqobatbardoshlik indeksiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi ($\beta_1 = 0,342$, $t = 4,17$ va $p < 0,001$). Bu borada innovatsion faollik indeksi ham muhim o'zgaruvchi bo'lib hisoblanadi ($\beta_2 = 0,289$, $t = 3,54$ va $p < 0,001$). Inson kapitali ($\beta_3 = 0,198$, $t = 2,87$ va $p < 0,01$) va infratuzilma sifati ($\beta_4 = 0,156$, $t = 2,34$ va $p < 0,05$) ham statistik jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Modelning umumiy izohlanish kuchi yuqori, ya'ni R^2 qiymati 0,78 ga va R^2 oraliq qiymati esa 0,71 ga teng.

Shuningdek, dinamik panel tahlili natijasiga ko'ra, raqobatbardoshlik sezilarli inersiya xususiyatiga ega. Xususan, o'tgan davr raqobatbardoshligi indeksi joriy davrga γ qiymati 0,47 koeffitsient bilan ta'sir qiladi ($p < 0,001$). Bu esa mintaqalar o'rtasidagi raqobatbardoshlik tafovutlarining o'rta muddatda saqlanib qolish tendensiyasini tasdiqlaydi. Sargan testi (p) esa 0,34 qiymatga teng natija berdi va bu holatda null-gipoteza rad etilmadi. Bu esa instrumentlarning to'g'ri tanlanganligini aks ettiradi.

Barcha 24 ta ko'rsatkichga PCA qo'llanilgandan so'ng, Kaiser mezoniga ko'ra 5 ta komponent ajratib olindi. Birinchi komponent "iqtisodiy rivojlanish va investitsion faollik" deb nomlanib, umumiy dispersiyaning 31,2 foizini tashkil etdi. Ikkinchi komponent "inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish" (18,6 %), uchinchi komponent "innovatsiyalar va texnologiyalar" (12,7 %), to'rtinchi komponent "infratuzilma" (10,1 %) va beshinchi komponent "demografik holat" (7,8 %) deb nomlandi.

Natijalarga ko'ra, Ward metodi dendrogrammasi va Calinski-Harabasz mezoni asosida mintaqalar quyidagi klasterga ajratildi:

1-klaster ("yetakchi mintaqalar") - Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyati. Bu mintaqalar yuqori investitsiyalar, kuchli innovatsion faollik va rivojlangan infratuzilma bilan ajralib turadi.

2-klaster ("o'rtacha rivojlangan mintaqalar") - Farg'ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari. Ushbu guruhda mintaqalar o'rtacha raqobatbardoshlik ko'rsatkichlariga ega bo'lib, iqtisodiy diversifikatsiya imkoniyatlari ham mavjud.

3-klaster ("rivojlanish talab etuvchi mintaqalar"): Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi. Bu mintaqalar past investitsiyalar, cheklangan infratuzilma va past ish bilan bandlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati 2-klasterga kirishi 2013-yildan beri kuzatiladi. Biroq, so'nggi yillarda ushbu viloyatning ko'rsatkichlari 1-klasterga yaqinlashish tendensiyasini namoyon etmoqda.

DEA CRS modeli natijalari bo'yicha samaradorlik chegarasida faqat Toshkent shahri va Toshkent viloyati joylashgan. Ya'ni, unda samaradorlik koeffitsienti qiymati 1,000 ga teng. Qolgan mintaqalar uchun o'rtacha samaradorlik koeffitsienti 0,683 qiymatni tashkil etdi. Ya'ni, ular o'z resurslarini 68,3 foiz darajada samarali ishlatmoqda.

Xorazm viloyatining DEA samaradorligi 0,724 tashkil etdi. Ushbu natija viloyat mavjud iqtisodiy va ijtimoiy resurslarini bir oz samarasiz ishlashini ko'rsatadi. VRS modeli natijalari bo'yicha Xorazm viloyatining miqyos samaradorligi 0,891 ni va sof texnik samaradorligi esa 0,813 ni tashkil etdi.

Moran I statistikasi hisoblari raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bo'yicha statistik jihatdan muhim fazoviylik klasterlashuvini tasdiqlaydi ($I = 0,342$, $z = 3,17$ va $p < 0,01$). Bu esa qo'shni mintaqalar o'rtasidagi ta'sir samaralari mavjudligini bildiradi.

SAR modeli natijalari ko‘rsatishicha, fazoviylik lag koeffitsienti (ρ) 0,284 ga teng bo‘lgan ($p < 0,01$). Ya’ni, qo‘shni mintaqalar raqobatbardoshlik ko‘rsatkichi 1 birlikka oshganda, berilgan mintaqaning raqobatbardoshligi o‘rtacha 0,284 birlikka o‘sadi. Ushbu natija mintaqalararo iqtisodiy integratsiya va kooperatsiyani kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

LISA (fazoviy bog‘liqlikning mahalliy ko‘rsatkichlari) tahlili natijalariga ko‘ra, Toshkent shahri va Toshkent viloyati atrofida “yuqori-yuqori” klaster shakllangan, Surxondaryo va Qashqadaryo mintaqalarida esa “past-past” klaster kuzatilgan.

Xulosa va tavsiyalar. Taklif etilgan kompleks metodologiya mintaqa raqobatbardoshligini ob’ektiv va ko‘p qirrali baholashga imkon beradi. Panel ekonometrika, fazoviylik tahlili va DEA usullari integratsiyasi esa klassik indeks yondashuvlari kamchiliklarini bartaraf etadi. Tadqiqot natijalari Xorazm viloyati investitsiya siyosati va strategik rejalashtirish hujjatlari uchun ilmiy asos vazifasini o‘taydi.

Mazkur tadqiqot natijasida mintaqa raqobatbardoshligini baholashning kompleks metodologiyasi ishlab chiqilib, quyidagi asosiy ilmiy xulosalar olindi:

- panel ekonometrika natijalari shuni ko‘rsatdiki, investitsiya muhiti ($\beta = 0,342$) va innovatsion faollik ($\beta = 0,289$) mintaqa raqobatbardoshligiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi. Bu borada R^2 ko‘rsatkichining 0,78 ga teng bo‘lgan qiymati esa modelning yuqori izohlanish kuchini tasdiqlaydi.

- klaster tahlili O‘zbekiston mintaqalarini uchta aniq guruhga ajratish imkonini berdi. Xorazm viloyati o‘rtacha rivojlangan mintaqalar guruhiga kiradi va 1-klasterga o‘tish uchun sezilarli salohiyatga ega.

- DEA tahlili bo‘yicha Xorazm viloyatining samaradorlik koeffitsienti 0,724 tashkil etib, resurslardan foydalanishda 27,6 foizlik zaxira mavjudligini ko‘rsatadi.

- fazoviylik tahlili mintaqalararo ta’sir samaralarini tasdiqlaydi (Moran $I = 0,342$ va $p < 0,01$). Ya’ni, qo‘shni mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi Xorazm viloyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

- dinamik panel modeli raqobatbardoshlikning inersiya xususiyatini aniqlaydi ($\gamma = 0,47$). Bu esa keng ko‘lamli islohotlar qisqa muddatda sezilarli natija bermasligi ehtimolini bildiradi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, mintaqa raqobatbardoshligini ekonometrik va statistik usullar asosida baholash uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilamiz:

1) Investitsiya muhitini yaxshilash uchun Xorazm viloyatida iqtisodiy zonalar sonini ko‘paytirish va ularning faoliyatini takomillashtirish, investorlar uchun “bir oynali” xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, strategik tarmoqlar (turizm, qishloq xo‘jaligi qayta ishlash va to‘qimachilik) bo‘yicha soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini ishlab chiqish hamda kredit kafolat fondlari va venchur kapital tizimlarini rivojlantirish.

2) Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish borasida Urganch shahrida texnopark va ilm-fan markazlarini tashkil etish va ularga budjet moliyalashuvini ko‘paytirish, universitetlar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun broadband internet infratuzilmasini kengaytirish hamda STEM ta’limini rivojlantirish va kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish.

3) Mintaqalararo kooperatsiyani kuchaytirish bo‘yicha Xorazm viloyati va qo‘shni Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtasida iqtisodiy zonaning hududiy kooperatsiya dasturini ishlab chiqish, mintaqaviy logistika markazlarini rivojlantirish va tranzit ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda iqtisodiy klasterlar tashkil etib, tarmoqlararo sinergiya samaradan foydalanish.

FOYDALANИLGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - 855 p.
2. Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge: MIT Press, 1991. - 142 p.
3. Storper M. The Regional World: Territorial Development in a Global Economy. - New York: Guilford Press, 1997. - 338 p.
4. Annoni P., Kozovska K. EU Regional Competitiveness Index 2010. - Luxembourg: European Commission JRC, 2010. - 240 p.
5. Huggins R., Thompson P. Competitiveness and the Post-Regional Political Economy. // Journal of Economic Geography, 2015, Vol.15, No.4. - pp. 1-26.
6. Gardiner B., Martin R., Tyler P. Competitiveness, Productivity and Economic Growth across the European Regions. // Regional Studies, 2004, Vol.38, No.9. - pp. 1045-1067.
7. Feldkircher M. Regional Convergence within the EU-25: A Spatial Econometric Analysis. // Bruges European Economic Research Papers, 2006, No.8.
8. Anselin L. Spatial Econometrics: Methods and Models. - Berlin: Springer, 1988. - 284 p.
9. Rey S.J., Montouri B.D. US Regional Income Convergence: A Spatial Econometric Perspective. // Regional Studies, 1999, Vol.33, No.2. - pp. 143-156.
10. Xoliqov A.A. Xorazm viloyatida sanoat klasterlarini shakllantirish istiqbollari. // O‘zbekiston iqtisodiy tahlili, 2021, No.3. – 45-58 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi asosida muallif hisob-kitoblari.